# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



# SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

# KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023- yil 1- noyabr holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 13 738 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 11 531 ta). 2019- yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sish sur’ati 111,4 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 113,2 foiz) tashkil etdi.

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda.*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*yanvar-oktabr oylari holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2 002 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 25,6 foiz, savdo – 40,3 foiz, sanoat – 11,7 foiz, hududlar kesimida eng ko‘p Guliston shahrida 20,3 foiz, Sardoba – 12,8 foiz, Sirdaryo – 11,5 foiz va Oqoltin – 9,1 foiz tumanlar hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Guliston sh. | **407** | 12,3 % | Boyovut t. | **152** | 12,3 % |
| Sardoba t. | **256** | 25,2 % | Sayxunobod t. | **150** | 13,6 % |
| Sirdaryo t. | **231** | 13,8 % | Yangiyer sh. | **138** | 14,4 % |
| Oqoltin t | **182** | 21,0 % | Xovos t. | **118** | 13,8 % |
| Guliston t. | **167** | 15,0 % | Shirin sh. | **35** | 9,5 % |
| Mirzaobod t. | **166** | 13,4 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- noyabr holatiga 13 738 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 111,4 foizni tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 32,7 foiz, qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 15,4 foiz, sanoat – 11,5 foiz, hududlar kesimida eng ko‘p Guliston shahrida 24,1 foiz, Sirdaryo – 12,2 foiz, Boyovut – 9,0 foiz va Mirzaobod – 9,0 foiz tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 3 306 | Sardoba t. | 1 017 |
| Sirdaryo t. | 1 673 | Yangiyer sh. | 961 |
| Boyovut t. | 1 238 | Oqoltin t. | 866 |
| Mirzaobod t. | 1 235 | Xovos t. | 857 |
| Guliston t. | 1 113 | Shirin sh. | 370 |
| Sayxunobod t. | 1 102 | | |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**512**

**24,4 %**
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**234**

**14,9 %**
Sanoat

**84**

**7,9 %**
Qurilish

**807**

**18,0 %**
Savdo

**52**

**14,7 %**
Tashish va saqlash

**83**

**12,0 %**
Yashash va ovqatlanish

**43**


**26,5 %**
Axborot va aloqa

**13**

**9,6 %**
Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**119**

**11,6 %**
Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 947 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Guliston sh. | **387** | 14,1 % | Sayxunobod t. | **149** | 15,9 % |
| Sardoba t. | **254** | 28,7 % | Boyovut t. | **148** | 14,7 % |
| Sirdaryo t. | **227** | 16,0 % | Yangiyer sh. | **133** | 15,6 % |
| Oqoltin t. | **181** | 24,3 % | Xovos t. | **113** | 16,7 % |
| Mirzaobod t. | **161** | 15,0 % | Shirin sh. | **33** | 10,9 % |
| Guliston t. | **161** | 16,9 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 100 

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 572 

Sanoat

1 068 

Qurilish

4 486 

Savdo

353 

Tashish va saqlash

690 

Yashash va ovqatlanish

162 


Axborot va aloqa

136 

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

1029 

Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- noyabr holatiga 11 596 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan (1 358 ta) o‘sish sur’ati 113,3 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 38,7 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 18,1 foiz, sanoat – 13,6 foiz, qurilish – 9,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,0 foiz, tashish va saqlash – 3,0 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,2 foiz, boshqa turlari – 8,8 foiz.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 2 750 | Sardoba t. | 886 |
| Sirdaryo t. | 1 418 | Yangiyer sh. | 851 |
| Mirzaobod t. | 1 074 | Oqoltin t. | 746 |
| Boyovut t. | 1 004 | Xovos t. | 678 |
| Guliston t. | 950 | Shirin sh. | 302 |
| Sayxunobod t. | 937 | | |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**512**
**24,5 %**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**234**
**15,2 %**

Sanoat

**84**
**7,9 %**

Qurilish

**807**
**18,0 %**

Savdo

**52**
**14,7 %**

Tashish va saqlash

**83**
**12,0 %**

Yashash va ovqatlanish

**43**
**26,5 %**


Axborot va aloqa

**13**
**9,8 %**

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**118**
**11,6 %**

Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

2023- yilning yanvar-okabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 26,3 foiz, savdo – 41,5 foiz hamda sanoat 12,0 foizni tashkil etgan.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 387 | 14,2 % | Sayxunobod t. | 149 | 16,0 % |
| Sardoba t. | 254 | 28,8 % | Boyovut t. | 148 | 14,8 % |
| Sirdaryo t. | 226 | 16,1 % | Yangiyer sh. | 133 | 15,7 % |
| Oqoltin t. | 181 | 24,3 % | Xovos t. | 113 | 16,8 % |
| Mirzaobod t. | 161 | 15,1 % | Shirin sh. | 33 | 11,0 % |
| Guliston t. | 161 | 17,0 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish surati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 093



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 542



Sanoat

1 064



Qurilish

4 477



Savdo

353



Tashish va saqlash

690



Yashash va ovqatlanish

162




Axborot va aloqa

133



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

1 017



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko‘p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (23,7 foiz), Sirdaryo (12,2 foiz), Mirzaobod (9,3 foiz) va Boyovut (8,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 53,9 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 2 733 | Sardoba t. | 883 |
| Sirdaryo t. | 1 405 | Yangiyer sh. | 848 |
| Mirzaobod t. | 1 067 | Oqoltin t. | 744 |
| Boyovut t. | 999 | Xovos t. | 673 |
| Guliston t. | 947 | Shirin sh. | 300 |
| Sayxunobod t. | 932 | | |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Sardoba t. | 354 |
| Mirzaobod t. | 337 |
| Sayxunobod t. | 277 |
| Oqoltin t. | 263 |
| Guliston t. | 207 |
| Boyovut t. | 197 |
| Sirdaryo t. | 175 |
| Xovos t. | 152 |
| Guliston sh. | 89 |
| Yangiyer sh. | 44 |
| Shirin sh. | 20 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.



# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 336 |
| Sirdaryo t. | 232 |
| Boyovut t. | 157 |
| Mirzaobod t. | 154 |
| Yangiyer sh. | 149 |
| Sayxunobod t. | 148 |
| Guliston t. | 116 |
| Xovos t. | 102 |
| Sardoba t. | 71 |
| Oqoltin t. | 60 |
| Shirin sh. | 49 |

| | |
|---|---|
| 2023 | 1 574 |
| 2022 | 2 267 |
| 2021 | 2 303 |
| 2020 | 2 054 |
| 2019 | 1 662 |

Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 15,4 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,8 foizini ishlab chiqarish sanoati, 4,7 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,6 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish va 0,9 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

| | |
|---|---|
| Ishlab chiqarish sanoati | 1 461 |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 73 |
| Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 25 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | 15 |

# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 362 |
| Mirzaobod t. | 120 |
| Sirdaryo t. | 97 |
| Yangiyer sh. | 84 |
| Guliston t. | 77 |
| Boyovut t. | 71 |
| Sayxunobod t. | 70 |
| Xovos t. | 64 |
| Oqoltin t. | 57 |
| Shirin sh. | 38 |
| Sardoba t. | 38 |




O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 23,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 21,1 foiz ulushni tashkil etdi.

**257** Fuqarolik obyektlarini qurish

**221** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**600** Bino va inshootlar qurish

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 1 231 |
| Sirdaryo t. | 608 |
| Guliston t. | 393 |
| Boyovut t. | 383 |
| Yangiyer sh. | 340 |
| Mirzaobod t. | 312 |
| Sardoba t. | 311 |
| Sayxunobod t. | 301 |
| Oqoltin t. | 252 |
| Xovos t. | 229 |
| Shirin sh. | 126 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Sirdaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 4 421 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 63,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 28,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 8,6 foiz ulushni tashkil etdi.

| 372 | 1 277 | 2 837 |
|---|---|---|
| Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash | Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo | Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo |

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1-noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 180 |
| Sirdaryo t. | 80 |
| Boyovut t. | 73 |
| Yangiyer sh. | 66 |
| Guliston t. | 58 |
| Sayxunobod t. | 52 |
| Sardoba t. | 44 |
| Mirzaobod t. | 43 |
| Oqoltin t. | 43 |
| Xovos t. | 28 |
| Shirin sh. | 25 |




2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 73,5 foizni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 5,1 foiz ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq–ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 94,9 foiz ulushini tashkil etdi.

**35** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**657** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 73 |
| Sirdaryo t. | 19 |
| Yangiyer sh. | 21 |
| Boyovut t. | 18 |
| Guliston t. | 10 |
| Shirin sh. | 9 |
| Sardoba t. | 8 |
| Oqoltin t. | 7 |
| Sayxunobod t. | 4 |
| Mirzaobod t. | 3 |
| Xovos t. | 3 |




2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 20,6 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 30,3 foizini tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 49,1 foizini tashkil etdi.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 87 |
| Sirdaryo t. | 32 |
| Yangiyer sh. | 20 |
| Guliston t. | 9 |
| Mirzaobod t. | 8 |
| Sardoba t. | 7 |
| Sayxunobod t. | 7 |
| Boyovut t. | 6 |
| Xovos t. | 5 |
| Oqoltin t. | 5 |
| Shirin sh. | 2 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 136 ta yoki 72,3 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

Ushbu sohadagi korxonalar sonining 90,6 foizi sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 3,1 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 6,3 foizini tashkil etdi.



# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 63 |
| Sirdaryo t. | 51 |
| Yangiyer sh. | 47 |
| Xovos t | 47 |
| Mirzaobod t. | 42 |
| Sayxunobod t. | 33 |
| Boyovut t. | 28 |
| Oqoltin t. | 16 |
| Guliston t. | 14 |
| Sardoba t. | 7 |
| Shirin sh. | 6 |




2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami Sirdaryo viloyatidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 2,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tashish va saqlash xizmati yo‘nalishining 74,3 foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishi 23,2 foizni;

pochta va kuryerlik yo‘nalishi 2,5 foizni tashkil etdi;



## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Tadbirkorlik subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**471**

**25,4 %**



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**200**

**16,1 %**



Sanoat

**78**

**8,5 %**



Qurilish

**767**

**19,9 %**



Savdo

**45**

**14,3 %**



Tashish va saqlash

**60**

**13,0 %**



Yashash va ovqatlanish

**39**

**28,7 %**




Axborot va aloqa

**12**

**11,8 %**



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**111**

**13,0 %**



Boshqa turlar

**Mas’uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

## Hududlar kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Guliston sh. | **356** | 16,3 % |
| Sardoba t. | **247** | 31,0 % |
| Sirdaryo t. | **218** | 17,4 % |
| Oqoltin t. | **174** | 26,0 % |
| Mirzaobod t. | **149** | 16,2 % |
| Guliston t. | **147** | 19,8 % |
| Sayxunobod t. | **123** | 15,9 % |
| Boyovut t. | **123** | 15,5 % |
| Yangiyer sh. | **113** | 15,2 % |
| Xovos t. | **102** | 16,9 % |
| Shirin sh. | **31** | 12,4 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni — Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**1 852**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**1 246**

Sanoat

**921**

Qurilish

**3 848**

Savdo

**314**

Tashish va saqlash

**462**

Yashash va ovqatlanish

**136**


Axborot va aloqa

**102**

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**854**

Boshqa turlar

2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 11 596 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 9 735 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan ma’suliyati cheklangan jamiyatlarining sohalar kesimida tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori ko‘rsatkich savdo – 39,5 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 19,0 foiz hamda sanoat – 12,8 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | **2 190** | Yangiyer sh. | **742** |
| Sirdaryo t. | **1 253** | Guliston t. | **741** |
| Mirzaobod t. | **919** | Oqoltin t. | **670** |
| Sardoba t. | **798** | Xovos t. | **605** |
| Boyovut t. | **794** | Shirin sh. | **250** |
| Sayxunobod t. | **773** | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

102 
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

154 
Sanoat

134 
Qurilish

551 
Savdo

36 
Tashish va saqlash

153 
Yashash va ovqatlanish

19 

Axborot va aloqa

30 
Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

136 
Boshqa turlar

2023- yil 1- noyabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘zaro taqqoslanganda, ikkinchi o‘rinni xususiy korxonalar egallagan bo‘lib, xususiy korxonalarning eng ko‘pi quyidagi hududlarda qayd etilgan; Guliston shahri - 444 ta, Boyovut - 155 ta, Guliston - 142 ta va Sirdaryo tumanida - 120 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan; savdo sohasida – 551 ta, sanoat – 154 ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida – 153 ta va qurilish sohasida – 134 ta.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | **444** | Yangiyer sh. | **74** |
| Boyovut t. | **155** | Oqoltin t. | **48** |
| Guliston t. | **142** | Sardoba t. | **49** |
| Sirdaryo t. | **120** | Xovos t. | **45** |
| Sayxunobod t. | **112** | Shirin sh. | **39** |
| Mirzaobod t. | **87** | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra 276 ta, 2019- yilning mos davriga nisbatan 125 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 23 tadan 64 taga (o‘sish 41 taga), sanoatda – 73 tadan 98 taga (o‘sish 25 taga), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi – 25 tadan 73 taga (o‘sish 48 taga) soningning sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 76 | Oqoltin t. | 15 |
| Guliston t. | 41 | Sayxunobod t. | 12 |
| Mirzaobod t. | 32 | Shirin sh. | 10 |
| Sirdaryo t. | 28 | Xovos t. | 5 |
| Boyovut t | 29 | Sardoba t. | 2 |
| Yangiyer sh. | 26 | | |

## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil yanvar-okabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarni faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**6**

**19,4 %**



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**27**

**26,5 %**



Sanoat

**2**

**25,0 %**



Qurilish

**9**

**27,3 %**



Savdo

**2**

**50,0 %**




Axborot va aloqa

**1**

**100,0 %**



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida chet el investitsiyasi ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 2,2 martaga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Sirdaryo t. | 14 | 24,1 % | Guliston t. | 2 | 16,7 % |
| Guliston sh. | 11 | 27,5 % | Xovos t. | 1 | 12,5 % |
| Yangiyer sh. | 7 | 35,0 % | Boyovut t. | 1 | 11,1 % |
| Sayxunobod t. | 4 | 36,4 % | Shirin sh. | 1 | 16,7 % |
| Mirzaobod t. | 4 | 16,0 % | | | |
| Oqoltin t. | 2 | 33,3 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 1,3 barobarga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 51 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy soning 25,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 18,0 foiz), Turkiya (ulushi 14,5 foiz), Qozog‘iston (ulushi 10,5 foiz) va Afg‘oniston (ulushi 6,5 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo t. | 58 | Boyovut t. | 9 |
| Guliston sh. | 40 | Xovos t. | 8 |
| Mirzaobod t. | 25 | Shirin sh. | 6 |
| Yangiyer sh. | 20 | Oqoltin t. | 6 |
| Guliston t. | 12 | Sardoba t. | 5 |
| Sayxunobod t. | 11 | | |

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| | |
|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 51 |
| Rossiya Federatsiyasi | 36 |
| Turkiya Respublikasi | 29 |
| Qozog‘iston Respublikasi | 21 |
| Afg‘oniston | 13 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 5 |
| Buyuk Britaniya | 4 |
| Eron Islom Respublikasi | 4 |
| Boshqa Davlatlar | 48 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 92 tasi qo‘shma korxonalar, 108 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 25 | Sirdaryo t. | 33 |
| 23 | Guliston sh. | 17 |
| 14 | Mirzaobod t. | 11 |
| 15 | Yangiyer sh. | 5 |
| 9 | Guliston t. | 3 |
| 6 | Boyovut t. | 3 |
| 6 | Sayxunobod t. | 5 |
| 2 | Oqoltin t. | 4 |
| 1 | Sardoba t. | 4 |
| 5 | Xovos t. | 3 |
| 2 | Shirin sh. | 4 |

Mamlakatimizda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta’minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko‘payib bormoqda.

2023- yil 1- noyabr holatiga xorijiy investitsiyalar ishtirokida ro‘yxatga olingan korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 50 taga ko‘payib, 270 tani tashkil etdi.

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda*




So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo‘limi
Tel.: 67 236 70 00